



# 1-SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA

## LUG'AT USTIDA ISHLASH YO'LLARI

*Obidjonova Ruxshona Suxrobovna*

*O'zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti talabasi*

*Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna*

*Ilmiy rahbar*

*Annotatsiya; So 'zning nutqda qanday shaklda qo 'llanilishini bilish qanchalik zarur bo 'lsa, uning ma 'nosini bilish ham shunchalik zarurdir. Inson nutqi jarayonida zarur so 'zlarni semantik ma 'nosiga qarab tanlaydi va fikrni aniq ifodalashga intiladi. Aks holda, yolg 'iz so 'z hech qanday kommunikativ vazifani bajara olmaydi. Yakka holdagi so 'zning o 'zi mustaqil ma 'no anglatmaydi. Lekin bir nechta so 'zlardan tashkil topgan gaplar nutqni, nutq esa ma 'lum bir ma 'noni ifoda etadi. Yoki u dialogni tashkil qilishi mumkin. Shu orqali inson o 'z nutqi orqali aytayotgan so 'zi bilan boshqalarga nisbatan munosabatini yoki ular bilan o 'zaro aloqa shaklini aniqlaydi. Nutqni anglashning eng muhim sharti — unda ifodalangan fikr va mazmunni tushunishdir. Fikrni ifodalashning turli usullari mavjud bo 'lib, ular so 'zlarning semantik ma 'nosiga qarab shakllanadi. Nutq o 'stirish metodikasida tilning leksikologiya va grammatika bo 'limlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, leksikologiya — bu alohida bo 'lim bo 'lib, unda lug 'at bilan ishlash, so 'zning ma 'nosi, ma 'no doirasi o 'rganiladi. Biz so 'zlarning ma 'nosini leksikologiyada o 'rganamiz. So 'zning ma 'noviy ishlatilishi, har qanday kontekstdagi ma 'nosi, hattoki yuz ifodasiga qarab o 'zgarishi, ohang, qo 'llanish uslubi — bularning barchasi leksikologiyada o 'rganiladi. Mazmun va mohiyatiga ko 'ra lug 'at bilan qanday ishlashni va uni qanday o 'rganishni aniqlab olish kerak ekanligini ko 'rib chiqamiz. Ushbu maqola birinchi sinfga mo 'ljallangani sababli, "Alifbe" darsligi va o 'qish savodxonligi darsliklari bilan ishlaymiz. Eng avval, lug 'at ustida ishlash tushunchasiga oydinlik kiritamiz. Lug 'at ustida ishlash — bu til boyligini oshirish, atamalarni tartibga solish va so 'zlarning to 'g 'ri ma 'no va izohlarini aniqlash jarayonidir. Bu ish jarayonida avval so 'zlar yig 'iladi, ularning*



imloviy va grammatik shakllari tekshiriladi. Keyin esa har bir so‘zning ma’nosini aniqlanib, kerak bo‘lsa tarjimasi yoki sinonim-antonimlari bilan birga yoziladi. So‘zlar odatda alifbo tartibida yoki mavzularga bo‘linib joylashtiriladi.

**Kalit so‘zlar;** Sinonim, antinim, lug‘at, boylik, makon, zamon, metodika, kommunikativ, analiz sintez,

Lug‘at ustida ishslash — bu til boyligini oshirish, atamalarni tartibga solish va so‘zlarning to‘g‘ri ma’no va izohlarini aniqlash jarayonidir. Bu ish jarayonida avval so‘zlar yig‘iladi, ularning imloviy va grammatik shakllari tekshiriladi. Keyin esa har bir so‘zning ma’nosini aniqlanib, kerak bo‘lsa tarjimasi yoki sinonim-antonimlari bilan birga yoziladi. So‘zlar odatda alifbo tartibida yoki mavzularga bo‘linib joylashtiriladi. Lug‘at tuzishda aniqlik, soddalik va izchillik muhim ahamiyatga ega. So‘zning nutqda qanday shaklda qo‘llanilishini bilish qanchalik zarur bo‘lsa, uning ma’nosini bilish ham shunchalik zarurdir. Inson nutqi jarayonida zarur so‘zlarni semantik ma’nosiga qarab tanlaydi va fikrni aniq ifodalashga intiladi. Aks holda, yolg‘iz so‘z hech qanday kommunikativ vazifani bajara olmaydi. Yakka holdagi so‘zning o‘zi mustaqil ma’no anglatmaydi. Lekin bir nechta so‘zlardan tashkil topgan gaplar nutqni, nutq esa ma’lum bir ma’noni ifoda etadi. Yoki u dialogni tashkil qilishi mumkin. Shu orqali inson o‘z nutqi orqali aytayotgan so‘zi bilan boshqalarga nisbatan munosabatini yoki ular bilan o‘zaro aloqa shaklini aniqlaydi. Nutqni anglashning eng muhim sharti — unda ifodalangan fikr va mazmunni tushunishdir. Fikrni ifodalashning turli usullari mavjud bo‘lib, ular so‘zlarning semantik ma’nosiga qarab shakllanadi. Nutq o‘stirish metodikasida tilning leksikologiya va grammatika bo‘limlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqla, leksikologiya — bu alohida bo‘lim bo‘lib, unda lug‘at bilan ishslash, so‘zning ma’nosini, ma’no doirasi o‘rganiladi. Biz so‘zlarning ma’nosini leksikologiyada o‘rganamiz. So‘zning ma’noviy ishlatilishi, har qanday kontekstdagi ma’nosini, hattoki yuz ifodasiga qarab o‘zgarishi, ohang, qo‘llanish uslubi — bularning barchasi leksikologiyada o‘rganiladi. Mazmun va mohiyatiga ko‘ra lug‘at bilan qanday ishslashni va uni qanday o‘rganishni aniqlab olish kerak ekanligini ko‘rib chiqamiz. Ushbu maqola birinchi sinfga mo‘ljallangani sababli, “Alifbe” darsligi va o‘qish



savodxonligi darsliklari bilan ishlaymiz. Eng avval, lug‘at ustida ishlash tushunchasiga oydinlik kiritamiz. Lug‘at ustida ishlash — bu til boyligini oshirish, atamalarni tartibga solish va so‘zlarning to‘g‘ri ma’no va izohlarini aniqlash jarayonidir. Bu ish jarayonida avval so‘zlar yig‘iladi, ularning imloviy va grammatik shakllari tekshiriladi. Keyin esa har bir so‘zning ma’nosi aniqlanib, kerak bo‘lsa tarjimasi yoki sinonim-antonimlari bilan birga yoziladi. So‘zlar odatda alifbo tartibida yoki mavzularga bo‘linib joylashtiriladi. Lug‘at tuzishda aniqlik, soddalik va izchillik muhim ahamiyatga ega. Lug‘at ustida ishlash metodikasi to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:

1. O‘quvchilar lug‘atini bo‘yitish, ya’ni yangi so‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish. Ona tilining lug‘at boyligini bilib olish uchun o‘quvchi o‘z lug‘atiga har kuni 8-10 ta yangi so‘zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so‘zni qo‘sishishi, ya’ni shu so‘zlar ma’nosini o‘zlashtirishi lozim.

2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu ichiga quyidagilarni oladi: 1) o‘quvchi puxta o‘zlashtirmagan so‘zlarning ma’nosini to‘liq o‘zlashtirish, ya’ni shu so‘zlarni matnga kiritish, ma’nosi yaqin so‘zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo‘llari bilan ularning ma’nosiga aniqlik kiritish; 2) so‘zning kinoyali ma’nosini, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirish; 3) so‘zlarning sinonimlarini, sinonim so‘zlarning ma’no qirralarini o‘zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birlıklarning ma’nosini o‘zlashtirish.

3. Lug‘atni faollashtirish, ya’ni o‘quvchilar ma’nosini tushunadigan, ammo o‘z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish. Buning uchun shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o‘qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish. Bunday so‘zlarga bolalarning nutq muhiti ta’sirida o‘zlashib qolgan adabiy til me‘yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so‘zlashuv tilida qo‘llanadigan sodda so‘z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so‘zlar kiradi. Adabiy til me‘yori degan tushunchani o‘zlashtirgach, o‘quvchilar yuqorida izohlangan so‘zlar o‘rniga adabiy tildagi so‘zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkam— langan sayin shevaga, jargonga oid so‘zlar, so‘zlashuv tilida



ishlatiladigan sodda so‘z va iboralar o‘quvchilarning faol lug‘atidan chiqib keta boshlaydi.

1-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida lug‘at ustida ishlash yo‘llari

1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida lug‘at ustida ishlash – bu o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, ularning fikr ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega jarayondir. Quyida ushbu faoliyatga oid asosiy jihatlar keltirilgan:

Lug‘at ustida ishlashning maqsadi: o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish. So‘zlarning to‘g‘ri talaffuzi va yozilishini o‘rgatish. So‘z ma’nolarini tushunish va kontekstda qo‘llay olishga o‘rgatish. O‘qilgan matndan yangi so‘zlarni ajratib olish va ularni ishlatishga undash.

Ish usullari va shakllari: so‘zlar bilan ishlash o‘yinlari: masalan, “top so‘zni”, “teskari ma’no top”, “so‘zdan so‘z yasash”.

So‘z birikmalari tuzish: o‘quvchilar yangi o‘rgangan so‘z bilan gap tuzishadi. Krossvord va diagrammalar: o‘quvchilarning so‘z yodlashini mustahkamlashga yordam beradi. So‘z daftari yuritish: har bir darsda o‘rganilgan yangi so‘zlar yozib boriladi. Rasmlar asosida so‘zlarni o‘rganish: ayniqsa birinchi sinfda bu juda samarali usul hisoblanadi.

O‘qituvchining roli: o‘quvchilar uchun tushunarli, ravon va qiziqarli tushuntirishni tashkil etish. Lug‘at ustida ishlashni darsning ajralmas qismiga aylantirish. Yangi so‘zlarni ko‘p marta, turli kontekstlarda qo‘llashga undash.

Natijalar: o‘quvchilar mustaqil ravishda matndan yangi so‘zlarni ajratib oladi. So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiladi va yozadi. Gap tuzishda so‘zlardan maqsadga muvofiq foydalanadi. O‘qish va tushunish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Lug‘at ustida ishlash 1-sinf o‘quvchilari uchun ancha murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki 1-sinf o‘quvchilari hali har qanday so‘zlarni — ya’ni badiiy so‘zlarni yoki adabiyotga xos bo‘lgan badiiy talqinda berilgan so‘zlarni bilmasliklari mumkin. Shu sababli savod o‘rgatish davrida rasmlar orqali, keyinchalik esa darsliklarda berilgan matlar orqali yangi so‘zlar bilan tanishtirishimiz mumkin bo‘ladi. So‘zning ma’nosini tahlil qilishda mantiqiy tahlil muhim rol o‘ynaydi. Mantiqiy tahlil



odatda alohida emas, balki boshqa o‘quv faoliyati — umumlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish, xulosa chiqarish kabi tarkibiy qismlar orqali amalga oshiriladi. Tahlil va sintezni birlashtirish tushunchalarni aniqlashtirishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar avval “Alifbe” darsligidagi matnlarni o‘qishdan oldin, rasmga qaraydilar. Unda tasvirlangan hodisa va holatlar yuzasidan muayyan tasavvur hosil qiladilar.

O‘qituvchi ularga rasm asosida gap yoki kichik hikoya tuzish topshirig‘ini beradi. Matn mazmuni yuzasidan berilgan savollar o‘quvchilarning mantiqiy tafakkur ko‘nikmalarini, o‘qishga bo‘lgan diqqatini va kuzatuvchanligini oshiradi. Mazmun va mohiyatiga ko‘ra alifbo darsligidagi matnlar va tasvirlangan predmetlar savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarning nutqini boyitish manbayi hisoblanadi. Ko‘pgina so‘zlar nafaqat savod o‘rgatish darslarida, balki boshqa fanlarda ham takrorlanadi va mustahkamlanadi. Shuning uchun nutq o‘stirish mashqlari o‘quvchilarning lug‘atini boyitishga xizmat qiladi. Matematika, tasviriy san’at, mehnat, tabiatshunoslik kabi boshqa fanlar bilan bog‘liqligi sababli, so‘z va so‘z birikmalarining miqdorini bir necha marta ko‘paytirish zarur, deb hisoblaymiz. So‘z — tilning mazmunidir. Birinchi sinf o‘quvchilariga alifbo darslididan boshlab ushbu ma’lumotlar o‘rgatiladi. Ya’ni o‘quvchilar rasm asosida bir-birlari bilan muloqot qilish, matn yaratish jarayonida yangi so‘zlarni o‘rganadilar, ularning o‘rniga boshqa so‘zlarni qo‘yib ishlatalish orqali lug‘at boyligini oshiradilar. Maktabda lug‘at ustida ishlash metodikasi to‘rtta asosiy yo‘nalishga tayangan holda olib boriladi. Savod o‘rgatish davridan keyin o‘qish darsligidagi lug‘atlarni esa, matn orqali tahlil qilamiz. Darslikdan bir matnni tanlab olamiz. “Vatan – mo‘tabar” matnnini tushuntirish orqali yangi lug‘atlar bilan tanishamiz. Matndan keyin “Savollarga javob bering”, “Izohli lug‘at”, “Topshiriqni bajaring” kabi yo‘riqnomalar va savol-javoblar mavjud. Shundan so‘ng, matnni ifodali o‘qing, maqollarni yodlang degan topshiriqlar ham keltirilgan. Ushbu topshiriqlar mantnni yanada mustahkamlam o‘rganilgan lug‘atni yanada o‘quvchilar ongiga singishiga yordam beradi. Mazkur mavzuni o‘tishdan oldin bolalarga Vatan nima ekani, Vatan qanday muqaddas tushuncha ekani, vatan haqida tushunchalarni berib o‘tganimizdan keyin, kitobda berilgan ikkita yangi so‘z — “mo‘tabar” va “makon”



bilan tanishamiz. Bu so‘zlar yangi bo‘lganligi sababli sinf taxtasiga yozib, bolalardan so‘raymiz:

— Bolajonlar, “mo‘tabar” deganda nimani tushunasizlar?

O‘quvchilar o‘z fikrlarini aytishadi. Ayrimplari bilmasliklari ham mumkin. Ba’zida shunday holatlar bo‘ladiki, o‘quvchilar:

— Bu yangi so‘z, biz bilmaymiz, ustoz o‘zingiz ayting, – deb javob berishadi.

Shunda biz tushuntiramiz: mo‘tabar – bu “aziz, qadrli, hurmatli” degani. Ya’ni “Vatanimiz aziz”, “Vatan mo‘tabar” deyishimiz mumkin. “Mo‘tabar” so‘zining ishlatalish joylari haqida bolalar bilan suhbat o‘tkazamiz, ularning ongiga bu so‘z ma’nosini singdiramiz. Shundan keyin ikkinchi so‘z — “makon” so‘ziga o‘tamiz.

— Makon nima degani, bolajonlar? — degan savolni beramiz. O‘quvchilar bilan birgalikda suhbatlashib, bu so‘z “yashash joyi” degani ekanini tushuntiramiz.

— “Yashash joyi” deganda nimani tushunasizlar? Nega uyimizni “makon” demaymiz, uy yoki hovli deymiz? Nega vatanni “makon” deb atayapmiz? — degan savollarni berib, muhokama qilamiz. O‘quvchilar ongida hosil bo‘lgan ma’lumotlar orqali ushbu lug‘atlar tushuntiriladi. So‘ng matn o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib eshittiriladi. Matn yana bir marta qayta o‘qiladi. O‘qituvchi matnni ohang bilan, chiroyli qilib o‘qib beradi. Shundan keyin matndan berilgan lug‘atlar topiladi:

— Matnimizga qo‘limizni qo‘yamiz-da, “mo‘tabar” va “makon” so‘zlarini topamiz, — deymiz. “Vatan – mo‘tabar” degan ibora matn sarlavhasida ham uchraydi.

— Nega Vatan mo‘tabar ekan? — degan savol orqali o‘quvchilar bilan suhbat davom ettiriladi. Keyin ikkinchi lug‘at – makon so‘zi topiladi.

— Demak, Vatan – bu siz sevgan odamlarning makoni.

Biz uyimizni “uy”, “hovli”, “xona” deb aytamiz, lekin “Vatan” — odamlarning makoni deb ataladi. Nega “makon” deyiladi? Chunki vatanda ko‘plab millat va elatlar yashaydi. Vatanimiz juda katta bo‘lganligi uchun u faqatgina “uy” emas, balki katta makon — ya’ni biz sevgan insonlar yashaydigan joy sifatida “muqaddas makon” deb ataladi. Shu tariqa lug‘atlar o‘quvchilar ongiga singdiriladi. Keyin topshiriqlar bajariladi, savollarga javoblar beriladi. Dars shu tarzda yakunlanadi. Bu ikkita lug‘at uya vazifa sifatida yodlab kelish uchun topshiriladi. Tushunmagan o‘quvchilardan bir



necha marta so‘raladi. Yangi mavzuni o‘tilgach, avvalgi mavzuni takrorlash qismida ushbu lug‘atlar yana qayta so‘raladi. Qayta so‘rash orqali biz o‘quvchilar ongiga lug‘at singdirilganini aniqlaymiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. S. Matchonov, H. Bakiyeva, X. G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, G. Xolboyeva. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent 2020.
2. F. Abdullayev. Lug‘at ustida ishlash. Samarqand 2022
3. U. Aydarova. O‘qish savodxonligi. 1-sinf II qism. Toshkent 2024. Nova Edutainment”
4. Aydarova U. Onat tili. Umumiyo‘tta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. II qism. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2024-88 b.
5. O‘.Q. Tolipov va M. Usmonboyeva .Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari – Toshkent. Fan. 2006.-260 bet
6. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharafjon Sariyev “Ona tili o‘qitish metodkasi”. T.: “Nosir” 2009.